

## ILMIY DUNYOQARASH VA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

**Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi**

Termiz davlat pedagogika institut o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi davr ta’limini tubdan o‘zgatishi haqida qisqacha yoritilgan. Bunda qo‘yilgan asosiy talab yosh avlodni ilmiy dunyoqarashini va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, tez o‘zgarayotgan dunyoga moslashishni o‘rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ilmiy dunyoqarash, ilmiy bilimlar, intellektual tizim, tafakkur, borliq, tafakkur, izchilik, ekologik bilimlar.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur xamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-goyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, xuquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon buladi. Muayyan dunyoqarashga ega bulish shaxsda atrof-muxit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini tulakonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuygusiga ega bulishi uchun zamin yaratadi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz xamda maksadga muvofik tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yulga kuyilishi, uning turli yunalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, uz-uzini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yulga kuyilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta uzlashtirilishi muxim urin

tutadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, xayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bulgan qadriyatlar xamda axloqiy tamoyillar moxiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. Uz mazmunida ezgu goyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs kiyofasida namoyon bulayotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi. Dunyoqarash o'z moxiyatiga kura, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bulmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan goyalar yotadi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va moxiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muxim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga aloxida e'tibor karatilmolda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida kabul kilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tugrisida»gi konuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida xam yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yukori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yunalishlaridan biri ekanligiga urgu beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yukori malakali kadr bulib etishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chukur bilimlarga ega bulish tabiiy xamda ijtimoiy jarayonlarning moxiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jixatlarini kura va baxolay olishga imkon beradi. Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya xamda ishlab chiqarish soxalarida kulga kiritilayotgan yutuklar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini xosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-xodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi. E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, xuquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik xamda ekologik bilimlarning takomillashgan kurinishi; muayyan goyaga cheksiz ishonch bulib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat takozosiga kura uzgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy koidalardan chetga chiqish kiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli xarakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan xolda ish kurish takozo etiladi. Uchinchi bosqichda e'tiqod barcha vaziyatlarda xam ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bulib koladi. O'quvchi tomonidan uzlashtirilgan ilmiy bilimlar xayotiy munosabatlar jarayonida keng kullanilganda, ularning asl moxiyati chukur xis kilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda xam muxim axamiyatga ega bulib, uni samarali tashkil etishda ong, xis-tuygu xamda xulk-atvor birligiga erishish maksadga muvofikdir. Zero, ular birligida ma'lum kamchiliklarning yuzaga kelishi xam o'quvchilarning komil shaxs bulib kamol topishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri xamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir.

Yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik xamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni mustaqil O'zbekiston Respublikasi xayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jixatdan tarbiyalashda milliy istiqlol goyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyani tashkil

etish jarayonida axloqiy mazmundagi suhbat, ma’ruza, baxs-munozara, konferentsiya, seminar hamda debatlaridan foydalanish o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

XX asr o‘rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo‘lgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qo‘ya boshladi. Aqlli mavjudot bo‘lgan inson har qachon tabiatni o‘rganishda hamisha o‘z manfaatlarini ko‘zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas-tuganmasdir, degan bir yoqlama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatni vujudga keltirdi. XX asr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlarcha, qadriyatli munosabatda bo‘lish zaruriyati chuqurroq anglana boshladi. Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tuzum, davrning talab va ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham bilish obyekt, ham bilish subyekt sifatida namoyon bo‘ladi: insoniyat o‘z tarixini yaratuvchi va o‘z-o‘zini biluvchidir. Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish obyekt hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik ko‘rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o‘zgaruvchi sistemalar bilish obyekt hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo‘lgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab ma’naviy hayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g‘oyalarni ham o‘rganadi. Bilish nazariyasi bo‘lajak mutaxassis kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki dunyoqarashni shakllantish uchun avvalo o‘zlikni anglash zarur. Shu o‘rinda pedagoglar zimmasiga endi o‘zligini anglatish vazifasi yuklanadi. Qachonki bu vazifani to‘la qonli uddasidan chiqsakgina ta’limiz tubdan isloh qilingan bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. “Falsafa asoslari“ Nazarov Q. Toshkent 2005 ;2012 ; 2017
2. Shermuhammedova Nigina “ Falsafa o‘quv uslubiy majmua “ Toshkent 2013.
3. Muxammadiev A. Tabiat muhofazasi va ekologiya. –T.: O‘qituvchi, 1986.

4. To‘xtaev A., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.- T.: O‘qituvchi, 1994.
5. R.D.Norqobilova, S.K.Zoirova, B.M.Tajimirzayeva. "Nigh spiritual generation-third renaissance builders".Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol.12, Issue 05, May 2022.
6. R.D.Norqobilova, S.Xoliyeva, M.Mamatmurodova. "The importance of people’s oral creativity in the development of spech by primary school students".European Journal of Humanities and Educational Advancements.https: //www.scholarzest.com Vol.3 No.06, June 2022 2660-5589. 84-86
7. Xoliqova P.A “Leksik tushunchalar haqida ma’lumot” Science and education. 458-465 betlar.
8. R.D. Norqobilova, P.Nazarova.”Pedagogical Possibilities of education of young generation at Abu RayhanBeruniteaching”.Web of Scientific Research Journal.ISSN:2776-0979, Volume 3,Issue 6,June 2022.1908-1911
9. Abduhalimova.Y.N “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini darslarda kreativligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida” ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL (1042-b)
- R.D.Norqobilova, S.Ibrohimova, M.Mamatmurodova. "Pedagogical and Psychological Factors of using the heritage of asian thinkers in the formation of cological thinking in primary school science". European Journal of Humanities and Educational Advancements. https: //www.scholarzest.com Vol.3 No.06, June 2022 2660-5589. 81-83
12. S.I.Tursunova."UZBEKISTAN IS A COUNTRY OF FRIENDSHIP".Web of Scientist: International Scientific Research Journal.185-189 B VOLUME 2, ISSUE 7 , JULY-2021
13. R.D.Norqobilova. "Methods of Forming Beautiful Writing Skills in Primary School Students". International Journal of Development and Public Policy. |e-ISSN: 2792-3991| www.openaccessjournals.eu| Volume: 1 Issue: 7 181-183.

14. D.U.Azimova. On the Example of Abdulla Avloni, The Hero of the National Awakening Period. MIDDLE EUROPEAN 179 SCIEARCH BULLETIN. 2022, [177/180] ISSN 2694-9970
15. R.Norqobilova, M.To‘rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.
16. F.U.Olloqulova. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING. In Volume 3, Issue 9 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Sep., 2022.
17. R.D.Norqobilova, S.Xoliyeva. "Eastern Scientists Views on Speech". Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June 2022. 1434-1437.
18. U.Q.Muminovna. IMPORTANT PROBLEMS OF UZBEK ANONYMITY IN THE WORKS OF KASGHARI. In Volume 3, Issue 9 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Sep., 2022.
19. R.D.Norqobilova. "Pedagogical basis of interdisciplinary communication in the educational process". International Journal on orange technologies. [www.journalsresarchparks.org/index.php/IJOT](http://www.journalsresarchparks.org/index.php/IJOT) e-ISSN: 2615-140|p-ISSN: 2615-7071 Volume: 02 Issue:10|OCT 2020. 108-111.
20. R.A.Tagaynazarova. ANALYSIS OF THE PSYCHOLINGUISTIC BASIS OF TEACHING CHILDREN THEIR MOTHER TONGUEE PRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 9 | September 2020 India - Peer Reviewed Journal.
21. Z.A.Abdunazarova. For Publication of Paper Entitled THE PLOT- THE ESSENCE OF ROLE-PLAYING GAMES AND THEIR ROLE IN TEACHING MOTHER TONGUE LESSONS In Volume 3, Issue 5 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) May, 2022.

21. R.D.Norqobilova. “Determining and developing students’ mother language ability as a social-pedagogical problem”. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 8, Issue 10, Oct., 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. 7-10.
22. P.A.Xoliqova For Publication of Paper Entitled THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION In Volume 10, Issue 11, Nov., 2022
23. D.U. Azimova “Abdullah Avloni’s Pedagogical Wiefs and its Essence” The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021.
24. D Azimova “The main Peculiarities of web tool 2 during teaching” Academic research in educational sciences, 2021.
25. Zaynab Abdunazarova. WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 85–90. 2022/12/9